

## ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF THE DEVELOPMENT OF DISTANCE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Jurabekova Khumora Muzaffar qizi  
Student of Tashkent Institute of Finance  
jurabekovaxumora@gmail.com

### ABSTRACT

This article highlights the features, models, advantages and disadvantages of distance education. In addition, obstacles in the development of distance education in Uzbekistan and a critical analysis of the literature on these topics are highlighted. Additionally, the time of COVID-19 has led to increased use of distance learning and social media for educational and communication purposes. The article aims to explore the factors affecting communication and collaboration in distance learning environments in the virtual classroom and beyond during the COVID-19 pandemic, and the role of social networks in this process. In this regard, the article summarizes all the information and knowledge-skills we have collected in this field, and our conclusions and suggestions are given.

**Keywords:** Distance education in Uzbekistan, online education, internet, information technology, communications, information flow, effective communication, COVID-19, cooperation, efficiency, distance education, educational environment, innovative education processes.

## O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM RIVOJLANISHINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi  
Toshkent moliya insituti talabasi  
jurabekovaxumora@gmail.com

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, modellari, afzalliklari va uning kamchiliklari haqida ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda masofaviy ta'limning rivojlanishidagi to'siqlar va shu mavzularga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili yoritib berilgan. Bundan tashqari, COVID-19 vaqtida masofaviy ta'lim va ijtimoiy mediadan "Ta'lim va aloqa" maqsadlarida foydalanishning ko'payishiga olib keldi. Maqolada COVID-19 pandemiyasi davrida virtual sinfda va undan tashqarida masofaviy ta'lim muhitida muloqot va hamkorlikka ta'sir etuvchi omillarni va bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlarning rolini o'rganishga qaratilgan. Shu munosabat bilan maqolada ushbu sohada to'plagan barcha ma'lumotlar va bilim - ko'nikmalarni jamlagan holda o'z xulosa va takliflarimiz berilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekistonda masofaviy ta'lim, online ta'lim, internet, axborot texnologiyalari, kommunikatsiyalar, axborot oqimi, samarali muloqot, COVID-19, hamkorliklar, samaradorlik, masofaviy ta'lim, o'quv muhiti, innovatsion ta'lim jarayonlari.

## ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Журабекова Хумора Музаффар кизи

Студентка Ташкентского Финансового Института

jurabekovaxumora@gmail.com

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены особенности, модели, преимущества и недостатки дистанционного образования. Кроме того, выделены препятствия на пути развития дистанционного образования в Узбекистане и проведен критический анализ литературы по этим темам. Кроме того, время COVID-19 привело к более широкому использованию дистанционного обучения и социальных сетей в образовательных и коммуникативных целях. Статья направлена на изучение факторов, влияющих на общение и сотрудничество в среде дистанционного обучения в виртуальном классе и за его пределами во время пандемии COVID-19, а также на роль социальных сетей в этом процессе. В связи с этим в статье обобщается вся информация и знания-навыки, которые мы собрали в этой области, а также даются наши выводы и предложения.

**Ключевые слова:** Дистанционное образование в Узбекистане, онлайн-образование, интернет, информационные технологии, коммуникации, информационный поток, эффективная коммуникация, COVID-19, сотрудничество, эффективность, дистанционное образование, образовательная среда, инновационные образовательные процессы.

### KIRISH

Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotgan bugungi kunda, turli ta'lim shakllari qatorida ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol. Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundun - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqa sohalarni aytishimiz mumkin. Quyida biz ushbu texnologiyalarning qisqacha, lekin asosiy bo'lgan tavsiflarini keltiramiz.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarmiqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi

o'qishning yangi shakli va mustaqil o'qishdir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-sonli qaroriga muvofiq, masofaviy ta'limning maqsadi axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabanning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish, talabalarning qiziqishlari, iqtidori va ehtiyojlariga muvofiq kasbiy salohiyatini rivojlantirishdan iborat. Masofaviy ta'limda ishtirokchilarning interfaolligi, talabalarning identifikatsiya qilinishi, yangi axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning pedagogik maqsadga muvofiqligi, ta'lim berishning ochiqligi va moslashuvchanligi haqidagi tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishning asosiy vazifalari mavjud, ya'ni talabalarning masofadan turib ta'lim olish va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, o'quv jarayonini tashkil etishning umumiy, guruh va individual shakllarining uyg'unligi, kadrlarning kasbiy darajasini oshirish va ularning mustaqil bilim olishiga ko'maklashish, talabalarga mamlakatning har qaysi hududida va uning tashqarisida ta'lim olishning teng imkoniyatlarini taqdim etish, hamda, ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish orqali ta'lim tizimining jozibadorligini oshirish<sup>1</sup> orqali tashkil qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Masofadan o'qitish bu Internet tarmog'i orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qishdir. Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiyadir.

Masofali ta'lim G'arbda an'anaviy bo'lib qoldi: har bir yuqori mavqega ega bo'lgan universitet hozirgi kunda albatta, masofaviy ta'lim dasturiga ega. Ko'plab maxsus "masofaviy o'quv yurtlari" ochilmoqda, ulardan ko'pchiligi dunyoda mashhur va turli mamlakatlarda o'zlarining bo'limlarini ochmoqdalar (misol uchun, Britaniyada Open University). Tahminlarga qaraganda, aynan masofali ta'lim (an'anaviy o'qish shakllari bilan birgalikda) keng tarqalib boradi, ta'limning bu shaklini "kelajak ta'limi" deb atamoqdalar. Ko'p chet el davlatlari masofaviy ta'limni ustuvor yo'nalish deb e'lon qildilar va ushbu yo'nalishni rivojlantirishga katta mablag'lar ajratmoqdalar. Ushbu jarayonni amerikaliklar boshlab berdilar. Hozirgi kunda masofaviy ta'lim AQShda mukammal shakllangan bo'lib, uning vujudga kelishi 1970 yillar oxiriga borib taqaladi. Avvalida masofaviy ta'lim sohasida o'quv muassasalari yakka holda faoliyat olib bordilar. 1980 yillarda yo'ldosh teleko'rsatuvlar rivojlanib borishi bilan, bu o'quv kurslari ustida bir necha o'quv muassasalari hamkorlikda ish olib bordilar. Global kompyuter tarmoqlarining shiddat bilan rivojlanishi inson faoliyatining hamma sohasiga, shu jumladan, ta'lim olish sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. So'nggi paytlarda ta'limning ushbu turi Yevropada ham faol rivojlanmoqda. Avstraliya ta'lim dasturlarini ommaviy ravishda kompyuter tiliga o'tkazib, ularni faol eksport qilmoqda.

Mamlakatimizda masofaviy ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'pchilik masofaviy ta'lim - bu shunchaki bizga ma'lum sirtqi ta'limning yangi shakli deb hisoblaydilar. Ma'lum darajada bu shunday: haqiqatda ham inson uyidan chiqmasdan o'qishi mumkin. Lekin bir sharti bor: buning uchun standart dastur bilan zamonaviy kompyuteri bo'lishi kerak. Ushbu dasturning mazmuni aynan masofaviy ta'lim va zamonaviy texnika hamda texnologiya bir-

<sup>1</sup> Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qaroriga muvofiq "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi" to'g'risidagi nizomi

biridan ajralmasligidan iborat. Bugungi kunda talaba o'z mamlakatidan chiqmay turib, deyarli, barcha G'arb universitetlari dasturlari bo'yicha ta'lim olishi mumkin. Ta'lim siyosiy va iqtisodiy birlashish jarayonlaridan ilgarilab umumjahon va umumiy foydalaniladigan bo'lib bormoqda. Masofaviy ta'lim g'oyasida aynan ta'lim an'anaviy turlarida qabul qilingan (ham kunduzgi, ham sirtqi) o'quvchilarning bilimga intilishlaridan, bilimlarni o'quvchilarga qarab harakatlanishi juda muhim. Dastavval masofali ta'lim oliy ta'limga ega insonlarning malakalarini oshirishlari uchun mo'ljallangan edi. Uning eng oddiy turi - bu avvallari ham mashhur bo'lgan televizion ko'rsatuvlar seriyasi hisoblanadi: butun bir kanal maxsus ta'lim dasturi uchun ishlaydi. Hozirgi kunda yanada kuchliroq texnikalar paydo bo'lishi bilan masofaviy ta'lim imkoniyatlari kengaymoqda. Rossiyada siyosiy va iqtisodiy islohotlar sababli uning ba'zi oraliq bosqichlari o'tkazib yuborildi va eng ilg'or - Internet tarmog'i orqali ta'lim olish turi keng tarqaldi.

Jahon amaliyotida masofaviy ta'lim barcha kurslari uchun albatta sertifikat beriladi, uni qalbakilashtirish deyarli mumkin emas. Barcha kurslarda ham albatta bunday ishlar yaqin vaqtlarda amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda taklif etilayotgan ko'pchilik masofaviy ta'lim kurslari - bu qiziqishga asoslangan mashg'ulotdir. Faqatgina izlash serverlarining o'zi "masofaviy ta'lim" so'rovmangizga minglab manzillarni ko'rsatib beradi. Bu dastur o'quvchiga faylda ma'lum bilimlar hajmi ko'rinishida kelib tushadi. Uni o'rganib chiqqandan keyin "talaba" dasturni "tekshirishni" ishga tushiradi - dastur unga savollar beradi. Savollarga javoblar asosida o'quvchiga keyingi bosqichga o'tish taklif etiladi yoki uning tayyorgarligi yaxshiroq bo'lishi kerakligi xabar qilinadi. Aniq fanlarda bilimni baholash masalasi nisbatan oson hal qilinadi va bu yerda testlar qo'llanilishi o'zini oqlaydi, lekin gumanitar fanlarda albatta javobning matni kerak bo'ladi. Ko'plab oliy o'quv yurtlari tajribalari nazorat o'tkazishni sirtqi ta'lim shaklida bo'lgani kabi, kunduzgi o'qish mashg'ulotlari ko'rinishida o'tkazish yaxshi bo'lishini ko'rsatadi. Lekin, misol uchun, oliy o'quv yurti AQShda, o'quvchi esa - Rossiyada bo'lgan hollarda nima qilish kerak? Bu yerda albatta yozma imtihon yagona yo'li hisoblanadi. Mana shu sababli mamlakatimizda videokonferensiyalar usuli keng tarqalgan, bugungi kunda qo'llaniladigan o'qitish usullaridan biri quyidagicha bo'lishi mumkin: "Talaba" axborotni oladi, uni o'rganib imtihon topshiradi. Boshqa usul ham mavjud. O'quv materiallari serverga kiritiladi, ularni o'zlashtirib ma'lum vaqtdan so'ng nazorat ishini yozadilar. Shunday qilib, bloklar bilan o'quvchilar butun dasturni o'zlashtiradilar, keyin esa tashkilotchilar imtihonlar topshirish vaqtini belgilaydilar. G'arbda ko'chirib olishga odatlanishmagan: agarda bilim olishni xohlasangiz o'qish kerak. Endi uyda o'tirish va g'arb namunasidagi diplom olish imkonidan tashqari masofali ta'lim nimasi bilan afzal ekanligini tushunib olish qoldi.

Uning xususiyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda, moslashuvchanligi to'g'risida ta'kidlab o'tish zarur. Masofaviy ta'lim tizimida bilim oluvchilar odatda, leksiyalar va seminarlar kabi muntazam mashg'ulotlarga qatnamaydilar, balki o'ziga qulay vaqtda, qulay joyda hamda qulay sur'atlarda ishlaydilar. Haqiqatda bilim olishni istovchilar. Odatiy hayot tarzini buza olmaydigan yoki xohlamaydiganlar uchun katta ustunliklari mavjud. Bundan tashqari, o'qishga kirish uchun talabadan ma'lum bilim darajasi talab qilinmaydi va har kim fanni o'zlashtirishi va baholanishi uchun qancha kerak bo'lsa, shuncha o'qishi mumkin. Masofadan o'qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

- *Darslik*

- *Audio va video darsliklar*

- *On-line darslar (Internet sahifa)*
- *Elektron kutubxonalar*
- *Testlar*
- *Multimedia*
- *Elektron darsliklar.*

Masofadan o'qitishning yangi bir usullaridan biri bu bilim dargohlarida tashkil qilinadi. Bu usulda bir ma'ruzachi yuzlab borinki minglab tinglovchilarga bir vaqtning o'zida ma'ruza o'qishi va shu vaqtning o'zida tinglovchilar bilan fikr almashishi, savollarga javob berishi mumkin. Bu usul yuqori texnikalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni har bir o'quv xonalari mikrofon, videokamera, video proyektor va video-audio uskunalari bilan ta'minlangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu usulda ishlash nafaqat bir bilim dargohi, nafaqat bir davlat, borinki butun bir davlatlar orasida ham qo'l keladi. Ya'ni bir ma'ruzachini ma'ruzasini kommunikatsiya yordamida boshqa davlatlar tinglovchilari ham tinglashi mumkin bo'ladi.

Shuningdek, masofaviy o'qitishning tashkil qilishga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanuvchi bir nechta modellar mavjud bo'lib, ular: geografik sabablar mamlakat maydoni, markazdan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi, mamlakatning kompyuter va axborot texnologiyalari jihatidan rivojlanganlik darajasi, transport va kommunikatsiyalarning rivojlanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi uslublari, masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan farqlanadi.<sup>2</sup>

***Birlamchi model.*** Ushbu model faqat masofaviy talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o'qituvchiga biriktirilgan bo'ladi. Maslahatlar va yakuniy nazoratni topshirish uchun esa mintaqaviy bo'limlar bo'lishi shart. Shunday o'quv kurslarida o'quv shaklini tanlashda o'qituvchi va talabalarga katta imkoniyatlar hamda erkinliklar beriladi. Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi <http://www.ou.uk><sup>3</sup> ta'limni keltirish mumkin.

***Ikkinci model.*** Bu model masofaviy va kunduzgi ta'lim talabalari bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o'quv dasturi va darslar jadvali, imtihonlar va ularni baholash mezonlari mavjud. Bunday o'quv muassasalarida kunduzgi kurslar soni masofaviylarga qaraganda ko'p. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo'nalishlar bo'yicha izlanishda qo'llaniladi. Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi <http://www.une.edu.au><sup>4</sup> ta'limni olish mumkin.

***Aralash model.*** Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim turlarini integratsiyalash uchun yaratiladi. Talabalar o'quv kursining bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan o'qiydi. Shu bilan birga, bu ta'lim turiga virtual seminar, taqdimotlar o'tkazish kiradi. Bu modelga misol qilib Yangi Zelandiyaning Massey Universitetidagi <http://www.massey.ac.nz><sup>5</sup> ta'limni ko'rsatish mumkin.

<sup>2</sup> "Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari" (Darslik) kitobi A.A.Akayev, A.T.Kenjabayev, Y.S.Ilxamova, M.Y. Jumaniyazova (2019)

<sup>3</sup> Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi masofaviy ta'limning saytdagi ko'rinishi

<sup>4</sup> Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi masofaviy ta'limning saytdagi ko'rinishi

<sup>5</sup> Yangi Zelandiyaning Massey Universitetidagi masofaviy ta'limning saytdagi ko'rinishi

**Konsorsium.** Ushbu model ikki universitetning bir-biri bilan birlashishini talab qiladi. Bu muassasalaridan biri o'quv kurslarini tashkil qilib ishni ta'minlasa, ikkinchisi ularni tasdiqlab, kurslarni talabalar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu jarayonda butun universitet emas, balki bitta kafedra yoki markaz yoxud universitet o'rnida ta'lim sohasida iahlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o'quv kursini doimiy ravishda nazorat qilish va muallif huquqlarini tekshirish zarur bo'ladi. Bu modelga misol qilib Kanadadagi Ochiq O'quv Agentligidagi <http://www.ola.bc.ca> <sup>6</sup> ta'limni olish mumkin.

**Tadqiqot metadalogiyasi.** Masofadan turib yoki odatdagidek sinfxonalarida ta'lim olish - bu ko'plab abituriyentlarni qiynayotgan savol hisoblanadi. Ko'pincha o'quvchilar masofaviy ta'lim olishni tanlashdan qo'rqishadi, chunki ular ushbu ta'lim usulining ijobiy va salbiy tomonlariga aniqlik kiritmaydilar.

Afzalliklari shundaki, siz o'qish bilan bir qatorda ish bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Aslida masofaviy o'qishni tanlagan abiturentlarning asosiy qismi bu o'z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta'limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o'qishingiz mumkin. Har qanday dastur uchun masofaviy ta'lim darajasi o'quv markazlaridagi oddiy to'lovdan ko'ra ancha arzonroq bo'lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqul variantlarni qidirayotgan o'quvchilar uchun onlayn ta'lim eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Onlayn ta'limda siz istagan hududda ma'lumot olasiz. Agar talaba o'zini intiluvchan hisoblasa, masofaviy ta'limning eng katta foydasi shundaki, ayrim darslar guruh bo'lib o'tiladi. Guruhda ba'zi o'quvchilar tezroq, ayrimlari esa sekin tushunadilar. Bu jihatdan masofaviy ta'lim olish usuli samaraliroq. Xususan masofaviy ta'lim afzalliklari: 24 soat davomida ma'lumot olish; zamonaviy materiallar; o'z-o'zini o'rgatish; o'z ixtiyoriga ko'ra moslashtirilgan kurslar; iqtisodiy samaradorlikdir.

Kamchiliklariga keladigan bo'lsak, chalg'ish ehtimoli juda yuqori. Yuzma-yuz muloqot qilish uchun o'qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi kursdoshlar yo'q. Mening fikrimcha, agar talaba masofaviy o'qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamochi bo'lsa, o'zini muntazam ravishda g'ayratli va diqqatli qilishga undashi kerak. Ehtimol, ba'zi bir vaqtlarda tarmoqdan ayrilish ya'ni uzilish ko'rsatkichlari yuqori deb o'ylayman. Onlayn bilim olishning eng katta dushmani bu internetning sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda talabaning ta'lim olishga bo'lgan intilishi so'nishi yoki asabiylashishiga olib keladi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanlangan tadqiqot mavzusi alohida tadqiqot mavzusiga tegishli masofaviy ta'limining qo'llanishining nazariy va amaliy jihatlari tadqiqotlarda atroflicha bayon etilgan. Bu tadqiqotlar ko'plab mamlakatlarda o'z samarasini berib kelmoqda. Ya'ni onlayn ta'limning cho'qqisiga yetgan ko'plab rivojlangan mamlakatlar uchun mashhur masofaviy ochiq onlayn kurslarni misol keltirish mumkun. Bularga, Coursera, edX, Udacity, Ivercity –ochiq ommaviy onlayn ta'lim platformasi bo'lib, bunga Courseraning turli sohalarda bepul o'quv kurslarini taklif qiluvchi onlayn platformasi hisoblanadi. Bunday platformalar fan tilida MOOCs (Massive Open Online Courses-Ochiq ommaviy masofaviy kurslar) deb atalib, Korsera shu turdagi kurslarni taklif qiluvchi

<sup>6</sup> Kanadadagi Ochiq O'quv Agentligidagi ta'lim shakli

tashkilotlarning yetakchilaridan sanaladi<sup>7</sup>. Hozirgi kunda ko'plab platformalarda dunyoning ko'plab davlatlaridan talabalar ro'yxatdan o'tib, o'zlari qiziqqan sohada masofaviy kurslarda bilim olishmoqda. Kurslar materiallarini o'quvchi o'ziga qulay bo'lgan vaqtda o'rganishi mumkin. Qisqa muddat (1-3 oy) ga mo'ljallangan bo'lsa-da, taqdim etiladigan kurslar o'sha sohaga taalluqli maqolalar, ilmiy materiallar, video va audio namoyish (prezentatsiya)lar bilan boyitilgan bo'lib, odatda qatnashchidan avval shu sohada o'qigan bo'lishi yoki hech bo'lmaganda xabardor bo'lishi ham talab qilinmaydi. Muhimi – kuchli qiziqish bo'lsa bas. Shu bilan bir qatorda quyidagi jadval asosida AQSH hamda Germaniyaning kuchli masofaviy onlayn kurslarini yuqori hamkorlik ko'rsatkichlari va foydalanuvchilari soni bilan kuchli beshtalikka kirgan provayder (platformalarini) ko'rishimiz mumkin(1-jadval).<sup>8</sup>

**(1-jadval) Kuchli beshtalikka kirgan masofaviy onlayn kurslar platformalari haqida ma'lumot**

Tashkilotchilar	Foydalanuvchilar soni	Hamkor Universitetlar	Provayder	Kurslar soni	Davlat
Xususiy, Standford universiteti professorlari Andrew Ng va Daphne Koller.	25 mln.dan ortiq	150	Coursera	2000 dan ortiq	AQSH
Garvard universiteti va Michigan texnologiya instituti	10 mln.dan ortiq	130	adX	1500 dan ortiq	AQSH
Xususiy, Standford universiteti professori Sebastian Thrun	8 mln.dan ortiq	2	Udacity	227	AQSH
Xususiy, Jonas Liepmann va Hannes Klopper tomonidan	10 mln.dan ortiq	41	Iversity	114	Germaniya

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi tufayli mamlakatdagi barcha o'quv muassasalari yopilgan. Qisqa ta'tildan so'ng asta sekin maktablar va universitetlar o'quv jarayoniga qaytishni boshladi, ammo mashg'ulotlar masofadan turib olib borilmoqda. Toshkent shahridagi Inha Universiteti professori dunyoda ta'lim modelining o'zgarishi<sup>9</sup> va COVID-19 pandemiya sababli O'zbekistonda masofaviy ta'limni rivojlanishi haqida so'zlab berdi.

Sun'iy intellekt professori Francis Tai Nohing so'zlariga ko'ra, so'nggi yillarda ta'lim sohasi sezilarli darajada o'zgargan. Professorning so'zlariga qaraganda yaqin kelajakda ta'lim modeli To'rtinchi sanoat inqilobida va'da qilinganidek jiddiy farqlanadi. Masalan, ma'lum bir vaqt ichida oliy ma'lumot olish (bakalavr) asta-sekin, uzluksiz (lifelong, learning) uzaytiriladigan qisqa muddatli ta'limni almashtiradi: fasilitatorlar mutaxassislarni almashtiradilar va ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan har kim dars bera oladi va sinflar va kampuslar gadjetlar va Internet fonida ahamiyatsiz bo'lib, masofaviy o'qishni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

«COVID-19 sababli butun dunyo masofaviy ta'lim berishni boshladi, ammo ko'plab davlatlar bunga tayyor emas edi. Mavjud ta'lim tizimi asta-sekin ma'ruzalar kontekstga yo'naltirilgan

<sup>7</sup> <http://nilufar.net> sayti

<sup>8</sup> Provayder (platformalar) talaba tomonidan yaratildi

<sup>9</sup> Inha Universiteti professori Francis Tai Nohing maqolasidan parcha

o'qishga o'tishi kerak. Ammo ushbu ta'lim yo'nalishiga o'tish davri uchun jalb qilingan barcha tomonlarning qiziqishi juda muhimdir. Barchamiz bu paradigma o'zgarishiga moslashish zarurligini his etishimiz kerak. Menimcha, hozirgi sharoitda O'zbekistonda buni amalga oshirishning imkoni bor", – dedi Francis Tai Noh.

Toshkentdagi Inha Universiteti professorining fikricha, O'zbekistondagi vaziyat ko'plab mamlakatlar kabi masofadan turib o'qitishning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Biroq, hamma talabalar ham bu fikrga qo'shilishmaydi. Rasmiy Telegram kanalida Universitet matbuot xizmati tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, aksariyat talabalar masofaviy ta'lim tizimiga o'tishni salbiy deb bilishadi. 800 tadan 35% talabalar bunday mashg'ulotlarni samarasiz deb bildilar va 16% mamlakatimiz Universitetlari bunday yangilikka tayyor emasliklarini qo'shimcha qildilar. Faqat 8% uyda yoki sinfda o'qish o'rtasidagi farqni sezmasdan masofaviy ta'limga nisbatan befarq ekanliklarini bildirdilar. Shu bilan birga, 25% masofaviy ta'lim tarafdorlari va hozirgi ta'lim tizimiga yangi narsalarni kiritish vaqti kelganligini ta'kidladilar. Yana 16% talabalar bu yangilikni qo'llab-quvvatlab, uni qiziqarli tajriba deb atashdi.

Ta'kidlash joizki, masofaviy ta'lim tizimi, qiyinchiliklar tufayli ta'lim ololmaydigan alohida ehtiyojli insonlar uchun ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Professorning so'zlariga ko'ra, O'zbekistonda Internetning yuqori tezligi, talabalarning to'liq ta'lim olishi uchun to'sqinlik qiluvchi omillar qatoriga kiradi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim kompleksini ta'lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Respublika miqyosidagi barcha Oliy ta'lim maskanlari (OTM) kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaxshi ta'minlangan. Ularning barchasi Internet tarmog'iga ulanganlar. Ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish OTMlari oldiga qo'yilgan ko'p muammolarni o'z paytida hal etishga yordam beradi. Hozirda fanlarni kompyuterlardan foydalanib o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlaridan o'quvchilarni shaxsga yo'naltirilgan rivojlanishini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qaroriga muvofiq "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi" to'g'risidagi nizomi
2. "Elektron tijorat" Darslik.(1-qism) –T.: "Nihol print", 2021.A.O.Ro'ziyev.
3. "Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari" (Darslik) "Akademik S.S.G'ULOMOV"ning umumiy tahriri ostida.2019.A.A.Akayev, A.T.Kenjabayev, Y.S.Ilxamova, M.Y. Jumaniyazova.
4. Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi masofaviy ta'limning saytdagi ko'rinishi <http://www.ou.uk>
5. Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi masofaviy ta'limning saytdagi ko'rinishi <http://www.une.edu.au>



6. Yangi Zelandiyaning Massey Universitetidagi masofaviy ta'limning saytdagi ko'rinishi  
<http://www.massey.ac.nz>
7. Kanadadagi Ochiq O'quv Agentligidagi ta'lim shakli <http://www.ola.bc.ca>
8. Inha Universiteti professori Francis Tai Nohing maqolasidan parcha
9. <http://nilufar.net> sayti
10. <https://lex.uz> sayti